



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TALABALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yuldosheva Oydingxon Baxromjonovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Email: oydinyuldashova8@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishi, o'z bilim va ko'nikmalarini baholashi, o'quv jarayonidagi faoliyatini tahlil qilishi hamda natijalarini takomillashtirishida o'zini-o'zi nazorat qilishning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, refleksiv yondashuv, mustaqil ta'lim va rivojlantiruvchi baholash usullarining o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'zini-o'zi nazorat qilish, pedagogik asoslar, oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, refleksiya, kompetensiya, baholash, pedagogik texnologiyalar.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING SELF-CONTROL AMONG STUDENTS

Yuldosheva Oydingxon Baxromjonovna

Teacher of Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

Annotation. This thesis examines the pedagogical foundations of developing self-control competence among students of higher education institutions. The importance of self-control in organizing students' independent learning activities, assessing their knowledge and skills, analyzing educational processes, and improving learning outcomes is analyzed. The role of modern pedagogical technologies, reflective approaches, independent learning, and developmental assessment methods in the formation of this competence is also scientifically substantiated.

Keywords: self-control, pedagogical foundations, higher education, independent learning, reflection, competence, assessment, pedagogical technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n28>

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning jadal o'zgarishi, fan va texnologiyalarning keskin taraqqiyoti hamda mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi oliy ta'lim tizimi oldiga tubdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning tub mohiyati nafaqat ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, balki strategik fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishish an'anaviy, ya'ni talabaga faqat tayyor axborot va bilimlarni uzatishga asoslangan eksternal (tashqi) ta'lim modelidan voz kechishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy oliy ta'lim paradigmasida talaba endilikda pedagogik ta'sirni shunchaki qabul qiluvchi, passiv retsipient (subyekt) hisoblanmaydi. Aksincha, u o'zining o'quv-bilish faoliyatini mustaqil loyihalashtira oladigan, individual ta'lim trayektoriyasini boshqara oladigan, o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini tahliliy süzgichdan o'tkazib, shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil belgilashga qodir bo'lgan faol, kreativ subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda [1; B. 12.]. Ta'lim jarayonining bunday subyekt-subyekt tamoyili asosida

tashkil etilishi talabalardan yuqori darajadagi mas'uliyat, motivatsiya va eng muhimi, ichki intizomni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim pedagogikasida talabalarining o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb va strategik ahamiyatga ega muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. O'zini-o'zi nazorat qilish shaxsning o'z faoliyatini oldindan rejalashtirishi, maqsad sari intilish jarayonida bajarilgan ishlarni muntazam monitoring (kuzatish) qilib borishi, erishilgan natijalarni xolis baholashi hamda yuzaga kelgan xatoliklarni bartaraf etish uchun o'z faoliyatiga operativ tuzatishlar (korreksiya) kirita olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya talabaning nafaqat universitet devorlari ichida muvaffaqiyatli tahsil olishini, balki kelajakda "umr bo'yi ta'lim olish" (lifelong learning) konsepsiyasi doirasida o'z-o'zini muttasil rivojlantirib borishini ham ta'minlaydi.

Tezisning maqsadi oliy ta'lim jarayonida talabalarining o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda ushbu tizimning ta'lim sifati samaradorligini oshirishdagi rolini tahlil qilishdir.

Asosiy qism

Pedagogika va psixologiya fanlari tarixida o'zini-o'zi nazorat qilish muammosi shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning determinanti sifatida o'rganib kelingan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zini-o'zi nazorat qilish tushunchasi shunchaki xatti-harakatlarni cheklash yoki taqiqlash emas, balki shaxsning o'z ichki potensialini to'g'ri yo'naltira olish tizimidir [2; B. 34.]. Talabalik davrida ushbu tizimning shakllanishi intellektual va emotsional yetuklikning ko'rsatkichi hisoblanadi. Pedagogik tadqiqotlarda o'zini-o'zi nazorat qilish mustaqil ta'lim samaradorligini oshiruvchi, talabaning mas'uliyatini shakllantiruvchi va o'quv faoliyatiga ongli munosabatini rivojlantiruvchi muhim kompetensiya sifatida qaraladi. B. Blum taksonomiyasida ham bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tahlil qilish, baholash va nazorat qilish yuqori darajadagi kognitiv faoliyat sifatida ko'rsatilgan [3; B.45.].

O'zini-o'zi nazorat qilish masalasi shaxsning o'z faoliyatini boshqarish, maqsad qo'yish va natijalarni baholash jarayoni bilan bog'liq. Tadqiqotchilar tomonidan ta'lim jarayonida refleksiya, mustaqil ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabalarining o'z faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan [1; B.52.].

Talabalarda o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining pedagogik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi faqat bilimlarni uzatuvchi manba emas, balki talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ta'lim faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi pedagogik hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim. O'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay pedagogik muhit talabalarni mustaqil fikrlashga, o'z faoliyatini tahlil qilishga va natijalar uchun mas'uliyatni his etishga undaydi.

Shuningdek, o'qituvchining muntazam ravishda konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berishi talabalarining o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlashiga yordam beradi. Individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni har bir talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish imkonini yaratadi. Rivojlantiruvchi baholash texnologiyalaridan foydalanish esa talabaning faqat yakuniy natijasini emas, balki uning rivojlanish dinamikasini ham baholash imkonini beradi. Bu esa talabalarining o'z-o'zini baholash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini yanada takomillashtiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, portfolio texnologiyasi talabaning o'z yutuqlari, bajarilgan ishlari va rivojlanish natijalarini tizimli ravishda jamlash hamda tahlil qilish imkonini beradi. Portfolio asosida ishlash talabaning o'z faoliyatini baholash, kelgusidagi maqsadlarini belgilash va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishiga xizmat qiladi. Loyiha metodi ham o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Loyiha faoliyati davomida talaba muammoni aniqlash, maqsad qo'yish, rejalashtirish, axborot izlash, natijalarni taqdim etish va baholash kabi murakkab jarayonlarni mustaqil amalga oshiradi. Natijada unda mas'uliyatlilik, mustaqillik va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatlari shakllanadi. Muammoli ta'lim texnologiyasi talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning o'z bilim va ko'nikmalarini baholash hamda mavjud bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlashiga yordam beradi. Refleksiv topshiriqlar esa talabalarning o'z faoliyati natijalari ustida fikr yuritish, o'z xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi ham o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron ta'lim platformalari, onlayn testlar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va ta'lim analitikasi vositalari talabalarga o'z o'quv natijalarini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'lim hajmining ortishi talabalardan yuqori darajadagi o'zini-o'zi nazorat qilish qobiliyatini talab qilmoqda. Talaba mustaqil ravishda ilmiy manbalarni o'rganish, topshiriqlarni bajarish va o'z natijalarini baholash orqali mas'uliyatli yondashuvni shakllantiradi.

Shuningdek, refleksiya o'zini-o'zi nazorat qilishning muhim pedagogik vositalaridan biridir. Refleksiv faoliyat orqali talaba o'z bilimlarini, tajribalarini va erishgan natijalarini tahlil qiladi hamda kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilaydi [2; B.78.].

Talabalarda o'zini-o'zi nazorat qilishni rivojlantirish oliy ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Ushbu kompetensiya talabaning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantiradi, o'quv faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishini ta'minlaydi va kasbiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, refleksiv metodlar, mustaqil ta'lim va rivojlantiruvchi baholash usullaridan samarali foydalanish talabalarda o'zini-o'zi nazorat qilish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 164 b.
2. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans, 1956.
4. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. – Theory Into Practice, 2002.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.